

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASI VA UNING MAZMUN-MOHİYATI.

Gadaymuratov Shuhrat Mamayusupovich

Texnologiya va geografiya kafedrası katta o‘qituvchisi

Yo‘ldosheva Dilafruz Toshpo‘latovna

Termiz tuman 10-sonli maktabning Texnologiya fani o‘qituvchisi

Anatatsiya: Mazkur maqola bo‘lajak Texnologiya ta‘lim o‘quvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va kasb hunarga yo‘naltirishda bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Texnologiya, kompetentlik, ko‘nikma, malaka, mutaxasis, kasb, ta‘lim, kasbiy kompetentlik, pedagogika, dizayn, kompetensiya, shakil, fan.

Anatatsiya: This article is about shaping the professional competence of future students of technology education and shaping their knowledge, skills, and abilities in directing them to the profession.

Keywords: Technology, competence, skill, competence, specialist, profession, education, professional competence, pedagogy, design, competence, form, science.

Анатасия: Данная статья посвящена формированию профессиональной компетентности будущих студентов технологического образования и формированию их знаний, умений и навыков при направлении их в профессию.

Ключевые слова: Технология, компетентность, умение, компетентность, специалист, профессия, образование, профессиональная компетентность, педагогика, проектирование, компетентность, форма, наука.

Mamlakatimizda ta‘lim sohasining yanada rivojlanishi tufayli duradgorlik sohasi bo‘yicha jahon talablariga va bozor mexanizmi talablariga javob beruvchi mutaxassislariga, texnologik ta‘lim bo‘yicha pedagoglarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ta‘lim jarayoni o‘qituvchilardan nafaqat chuqur bilim va pedagogik mahoratni, balki kasbiy kompetensiyani ham talab qiladi. O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ularning samarali ishlashini ta‘minlaydigan asosiy omillardan biridir. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Bo‘lajak texnologik ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy faoliyatga tayyorlashda o‘ziga xos salmoqli hissi bor. Ular egallanishi lozim bo‘lgan mutaxassislikni o‘rganishning asosini tashkil etadi. Ta‘limning asosiy vazifalaridan biri aniq bir kasb bo‘yicha talabalarda shakllantirilishi kerak bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalar asosini tashkil etuvchi bilim, ko‘nikmalar va malaka tizimini hosil qilishdan iborat. Mazkur fanlar blokining asosiy maqsadi tayyorlanadigan mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosini tashkil etib, ular bo‘lajak texnologik ta‘lim mutaxassislarning amaliy faoliyati uchun shart-sharoit yaratishdan iborat.

Bunda ushbu blokka kiruvchi fanlar mazmuni, o‘qitish maqsadi va vazifalari, metodlari, shakllari, vositalari, o‘tkazilish joyi, jihozlanishi, ular uchun ajratilgan vaqt bo‘yicha boshqa fanlar bloklaridan farqli bo‘ladi, chunki bu blok bo‘lajak texnologik

ta'lim mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda doimo ushbu sohaga tegishli moddiy-texnik baza, o'quv-axborot ta'minoti va malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash kasbiy ta'limda ustuvor vazifadir.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi Kasbiy kompetensiya - bu pedagogning o'z kasbiga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi hamda ularni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Bu tushuncha quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. **Kasbiy bilimlar** – pedagogika, psixologiya, metodika va sohaga oid maxsus bilimlar majmuasi.

2. **Amaliy ko'nikmalar** – o'qitish usullarini to'g'ri tanlash va qo'llash, dars jarayonini samarali tashkil etish.

3. **Shaxsiy fazilatlar** – kommunikativlik, kreativlik, muammolarni hal qilish qobiliyati va kasbga sadoqat.

4. **Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) bilan ishlash** – zamonaviy texnologiyalarni dars jarayonida qo'llay olish.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

1. **Nazariy va amaliy ta'lim uyg'unligi** – universitetda o'rganilgan bilimlarni maktab amaliyoti bilan bog'lash.

2. **Innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanish** – interfaol usullar, loyiha ishlari, muammoli ta'limdan foydalanish.

3. **Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o'zlashtirish** – elektron darsliklar, onlayn ta'lim resurslaridan foydalanish.

4. **Shaxsiy va kasbiy rivojlanish** – pedagogning o'z ustida ishlashi, doimiy ravishda yangi bilimlarni o'rganishi.

Kasbiy kompetensiyaning ahamiyati

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi quyidagi jihatlar bilan muhim ahamiyat kasb etadi:

- Ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi.
- O'quvchilar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi.
- O'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi.
- Innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish imkonini beradi.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitishda psixologik – pedagogik qonuniyatlarni hisobga olinishi bevosita bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchining kasbiy faoliyatini yuzaga kelishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchisining kasbiy faoliyati – bu o'quv tarbiyaviy jarayonga o'zining faol munosabatlarini bildirib, qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy – iqtisodiy nuqtai nazardan yondashib, komil inson sifatlari bilan birga aqliy kasbiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beruvchi faoliyatdir. Shuning uchun ham kasbiy

kompetentlikni rivojlantirishda, albatta, har tomonlama takomillashgan chuqur kasbiy bilim zarurdir. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilariga kasbiy fanlardan beriladigan bilimlarning o'ziga xos sintezini aniqlash va bu sintezda qatnashayotgan bilimlarning tabiati, ularning o'zaro aloqadorligi, tuzilishi va boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida ma'lumotlarning ta'lim jarayonida berib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Ixtisoslik fanlar blokiga kiruvchi fanlarni o'qitishda nazariya bilan amaliyot birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham ixtisoslik fanlaridan o'quv uslubiy majmualarni yaratishda ularga oid o'quv axborotli uslubiy majmua va multimediali ta'lim texnologiyalarini joriy etishni e'tiborga olish lozim, chunki hozirgi davr axborot asridir.

Texnologik ta'limida amaliy bilimlar, ko'nikmalar va malakalar nazariy bilimlardan kam emas va albatta ulardan ko'zlangan maqsad bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali yo'llarini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bo'lajak texnologik ta'lim mutaxassislarning kasbiy faoliyatida ularning kasbiy kompetentligi juda qo'l keladi.

Hozirgi davrda ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yutuqlardan keng foydalanish, ularni ta'lim tizimida joriy qilib borish hamda rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini mamlakatimiz ta'lim tizimiga tadbiq qilish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda bo'lajak texnologik ta'lim o'quv rejaga kiritilgan va fanlarining mazmuni tahlil qilib chiqilganda, shu narsa ma'lum bo'ldiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish uchun kiritilgan fanlar talabaning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama kengaytirishga qaratilgan. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ularning professional faoliyatida muhim o'rin tutadi. Kasbiy bilim, amaliy ko'nikmalar, shaxsiy fazilatlar va qobiliyatini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy jihatdan rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilari ta'lim oluvchilarga yangi texnika va texnologiya yutuqlaridan axborotlar beruvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Buning uchun bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchisi oliy o'quv yurtida o'qish davrida umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan chuqur bilimlarni egallashi, ularni o'z faoliyatida qo'llay olishi kerak. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchi-bakalavrlarni tayyorlashda ixtisoslik fanlaridan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib ilmiy yondoshilgan holda bilim berish taqozo qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish. -T.: Fan nashriyoti, 2004. -130 b.

2. Muslimov N.A., Zuparova D.D., Karimova N.N. Ctanovlenie dizayn obrazovaniya v Uzbekistane // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent. 2017. - №3. – B. 65-69.
3. Muslimov N.A. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetentlik // Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini ta'minlashning integrativ texnologiyalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Toshkent: TDPU, 2010. - B. 114-118.
4. Gadaymuratov Sh.M (2023). Sinf dan tashqari mashg'ulotlarda kasbhunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish. Interpretation and researches, 2(1).
5. Gadaymuratov Shuhrat Mamayusupovich. (2022). Professional Competence Development of Future Technological Education Teachers. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 73-75.
6. Gadaymuratov Shuhrat Mamayusupovich. (2022). Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 3(5), 5-7.
7. Eshpulatova Jang'il Eshonqulovna, . (2023). Methodology of development of creative skills of primary class students. International Journal of Pedagogics, 3(03), 25–31. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue03-05>
8. Zhangil ESHPULATOVA. (2023). Criteria for development of creative thinking ability of primary class students. World Bulletin of Social Sciences, 27, 1-5. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3218>